

MUSTAQILLIK - BARCHA YUTUQLARIMIZNING ASOSI

*Olimjonova Zarnigor**Najmuddinova Sarvara**O'zbekiston davlat san'at va madaniyat institutining**Farg'onan mintaqaviy filiali talabalari*

Anotatsiya: Ushbu maqolada mustaqillik butuk ne'mat ekanligi va barcha yutuqlarimizga mustaqilligimiz sababchi ekanligi yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Mustaqillik, erkunlik, qonun, yutuq, baxt, tarix, xalq, tinchlik, Vatan, bag'rikenglik, shukronalik.

Jonajon Vatanimiz - O'zbekiston Respublikasi o'zining davlat mustaqilligini qo'lga kiritgani va mustaqil taraqaiyot yolini boshlaganiga 32 yil toldi. Istiqlol el-yurtimiz uchun o'z taqdirining haqiqiy egasi bo'lib, qadr-qimmatini anglab, munosib hayot kechirish, yurtimizda huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish imkoniyatini yaratdi. Ayni paytda u har bir odamning iqtisodiy, ijtimoiy sohalarda iste'dod va qobiliyatini to'la namoyon etishi, huqua va erkinliklarini ro yobga chigarishining mustahkam zaminidir. Mustaqillik yillarda ko'hna tariximiz, boy merosimiz, milliy davlatchiligidimiz, muqaddas dinimiz, urf-odat va an'analarimiz qayta tiklandi. Bugungi kunda mehr-oqibat, bag'rikenglik hamjihatlik kabi oljanob fazilatlar, milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat, Vatan taqdiri va kelajagiga daxldorlik tuyg'usi yuragimizning tub-tubidan o'rinn oldi. Mustaqillik el-yurtimiz uchun jahon hamjamiyatidan munosib o'rinn egallab, hayotning turli soha va tarmoqlarida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish uchun mustahkam zamin yaratib, barcha yutuq va marralarimizning asosiyan manbai bo'lib kelmoqda. Istiqlol tufayli xalqimizning asriy orzulari ro'yobga chiqdi, millatning g'ururi, or-nomusi, sha'ni tiklandi. Ayniqsa, so'nggi olti-yetti yilda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida amalga oshirilayotgan islohotlar mamlakatimizning butun dunyoga ochilishi uchun barcha sharoitlarni yaratmoqda.¹ Mustaqillik xalgimizga, millatimizga o'zligini teran anglash, ming yillar davomida ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan boy ma'naviy-madaniy merosdan bahramand bo'lismi imkonini yaratdi. Mustaqilligimizning turli yillarda millatimizning buyuk farzandlari - Ahmad Farg'oniy, Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Jaloliddin Manguberdi, Alisher Navoiy, Imom Buxoriy, Abduxolia o'ijduvoniy, Bahouddin Nagshband, Imom Moturudiy, Burhoniddin Marg'iloni, Imom Termizi, Xoja Ahror Valiy singari ulug' zotlarning tavallud sanalarini alohida nishonlash hamda boy ilmiy, diniy-ma'rifiy merosini keng ommalashtirish va

¹ <https://parliament.gov.uz>

o'rganish, Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xiva, Shahrisabz, Qarshi, Termiz, Marg'ilon singari qadim va muazzam shaharlarning xalqaro miqyosdagi yubileylari o'tkazilishi, «Avesto»ning 2700 yilligi, «Alpomish»ning 1000 yilligi, Xorazm Ma'mun akademiyasi 1000 yilligining keng nishonlanishi, albatta, bevosita istiqlol davri bilan bog'liq. Mustaqillik insoniyatning azaldan orzu-umidi bo'lib kelgan. Ana shu g'oya asosida AQSH, Fransiya, Lotin Amerikasi mamlakatlarda inqiloblar yuz berdi. 20-asrning 90-yillariga kelib sotsialistik mamlakatlarda inson huquqlarini himoya qilish va ozodlikka intilishning yangi bosqichi boshlandi. Shargiy Yevropa mamlakatlarda qariyb yarim asr hukm surgan totalitar davlat tuzumi inqirozga yuz tutib, demokratik tartibotlar qaror topa boshladi. Yugoslaviya Sotsialistik Federativ Respublikasi parchalanib, uning o'rniда bir necha mu-stagil respublika, Chexoslavakiya Sotsialistik Respublikasi ikkiga bolinib, Chexiya va Slovakiya suveren davlatlari vujudga keldi. Germaniya Federativ Respublikasi va Germaniya Demokratik Respublikasi birlashib, nemislar yashaydigan hududda sotsialistik tuzum barham topdi. Ayni chog'da, sobiq SSSR parchalanib uning o'rniда mustaqil taraqqiyot yo'lini tanlagan 15 mamlakat tashkil topdi. Boshqacha gilib aytganda, bu davrga kelib Mustaqillikka erishish masalasi dunyoni keng qamrab olgan jarayonga aylandi. O'zbekistonning Mustaqillikka erishishi ana shu olamshumul jarayon tarkibida yuz berdi. Yurtimizdagи bugungi tinch va osoyishta, bunyodkor hayot, barqaror taraqaiyot bunday yondoshuvning naqadar to'g'ri bolganini va uzoqni ko'zlaganini tasdiqlab bormoqda. Mas'uliyatli paytlarda, keskin ijtimoiy larzalarga olib keladigan har ganday inqilobiy harakatlarga qarshi, tadrijiy rivolanish tamoyillariga asoslangan o'z yo'limiz bor va bu yo'lidan hech qachon qaytmaymiz, deb aytilgan qat'iy so'z va mustahkam siyosat bugun ham izchil amalga oshirilmoqda.

Foydalilanilgan adabiyotlar:

1. Nizomova Ismigul, Globallashgan jarayonda ona tili ta'limi. Ilmiy maqola.
2. S. Dolimov, H. Ubaydullayev, Q. Ahmedov. Adabiyot o'qitish metodikasi. - T.: «O'qituvchi», 1967;
3. Safo Matjon. Kitob o'qishni bilasizmi?- T.: "O'qituvchi", 1993. 11-bet. • Husanboyeva Qunduzxon, Niyozmetova Roza
4. Sh.M.Mirziyoyev "Erkin va farovon, demokratik Ozbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz" Toshkent 2016y.